

SHAXSIY SAYYOR QABUL O'TKAZILDI



SHAXSIY SAYYOR QABUL O'TKAZILDI

Kecha, 30 iyul kuni "Nurli kelajak" mahallasidagi 29-maktabgacha ta'lim muassasasi hovlisida Termiz shahar hokimi Isroil Xudoyberdiev rahbarligida, shahar IIOFMB boshlig'i bilan birgalikda fuqarolar uchun navbatdagi shaxsiy qabuli o'tkazildi. Unda shahardagi barcha mutasaddi korxonalar va tashkilot rahbarlari ishtirok etdi.

O'tkazilgan qabulda 46 nafar fuqarolar tomonidan 60 ga yaqin murojaatlar kelib tushgan bo'lib, shundan subsidiya tartibida uy-joy olish masalasida 8 nafar hamda imtiyozli kredit olish bo'yicha 6 nafar fuqarolar murojaatiga o'z o'rnida huquqiy tushuntirishlar berildi.

Fuqarolar tomonidan qilingan murojaatlarning ayrimlari joyida ijobiy yechimini topdi. Jumladan, "Ma'rifat" MFYdan "Ayollar daftari"da turuvchi R.Mamatqulovaga moddiy yordam va 1-nafar fuqaroga homiylik asosida pasport olish uchun yordam berildi. Shuningdek, "Nurli kelajak" MFYda yashovchi 4 nafar fuqarolarga soglig'ini tiklashi uchun amaliy yordam ko'rsatiladigan bo'ldi.